

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Meyliyeva Mavjuda Muradovna
Ergasheva Odina Hasan qizi
Qashqadaryo pedagogika texnikumi o'qituvchilari

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN BASED ON NATIONAL VALUES

Meyliyeva Mavjuda Muradovna
Ergasheva Odina Hasan qizi
Teachers of the Qashqadaryo Pedagogical College

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi va oilaviy tarbiyaning o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashning samarali usullari, innovatsion yondashuvlari hamda mavjud muammolar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy barkamollik va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, maktabgacha ta'lim, tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy o'zlik, vatanparvarlik, oilaviy tarbiya, xalq pedagogikasi, urf-odatlar, an'analar.

Abstract. This article highlights the theoretical foundations, pedagogical opportunities, and practical significance of educating preschool children based on national values. The role of national values, customs, traditions, folklore, and family upbringing in the formation of a child's personality is analyzed. Furthermore, the study examines effective methods, innovative approaches, and existing challenges related to integrating national values into the educational process of preschool institutions. The findings indicate that value-based education contributes to the development of patriotism, humanism, spiritual maturity, and a sense of national identity among children.

Keywords: national values, preschool education, upbringing, moral and ethical education, national identity, patriotism, family upbringing, folk pedagogy, customs, traditions.



Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy merosini asrab-avaylash hamda kelajak avlodga yetkazishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy boyligi va madaniy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy o'zlikni saqlab qolishning asosiy omillaridan biridir.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda bolaning dunyoqarashi, xarakteri, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllana boshlaydi. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson shaxsining asosiy fazilatlari aynan ilk bolalik davrida vujudga keladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish va ularga milliy ruhdagi tarbiya berish bugungi kun pedagogikasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat, milliy g'urur, insonparvarlik va ma'naviy barkamollik kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ma'naviy merosi, urf-odatlari, an'analari, axloqiy me'yorlari va madaniy boylklari yig'indisidan iborat bo'lib, jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari mavjud bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Milliy qadriyatlar bolalarni tarbiyalashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Chunki ular yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini shakllantiradi. Bolalar milliy qadriyatlar orqali yaxshilik va yomonlik, adolat va insofsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalarni farqlashni o'rganadilar.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi:

- Vatanga sadoqat va muhabbat;
- ota-onaga hurmat va ehtirom;
- kattalarni qadrlash;
- kichiklarga mehribonlik ko'rsatish;
- mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik;
- halollik va rostgo'ylik;
- bag'rikenglik va insonparvarlik;
- milliy g'urur va iftixor.

Shuningdek, milliy qadriyatlar bolalarning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi. Globallashuv sharoitida turli madaniy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir paytda milliy





qadriyatlar yosh avlodni ma'naviy bo'shliq va yot g'oyalardan himoya qiluvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar taqlid qilishga moyil bo'lib, kattalarning xatti-harakatlari va munosabatlarini tez o'zlashtiradilar. Shu sababli bu davrda berilgan tarbiya bolaning butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishda bir qator pedagogik tamoyillarga amal qilish zarur.

Milliy qadriyatlar bolalarga faqat ayrim bayramlar yoki tadbirlar davomida emas, balki kundalik ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida muntazam singdirilishi lozim. Masalan, ertalabki suhbatlar, o'yinlar, sayrlar, badiiy adabiyot mashg'ulotlari va mehnat faoliyatlarida milliy qadriyatlarga oid elementlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar abstrakt tushunchalarni qabul qilishda qiynaladilar. Shu sababli milliy qadriyatlarni sodda, qiziqarli va obrazli shakllarda yetkazish zarur. Ertaklar, sahna ko'rinishlari, xalq o'yinlari va amaliy mashg'ulotlar bu borada samarali vosita hisoblanadi.

Bolalar milliy qadriyatlarni tayyor ma'lumot sifatida emas, balki amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishlari lozim. Milliy hunarmandchilik elementlari, xalq o'yinlari, ijodiy topshiriqlar va bayram tadbirlarida faol ishtirok etish orqali ular milliy madaniyatni chuqurroq anglaydilar. Milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya samaradorligi oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahalla hamkorligiga bog'liq. Bolaning bog'chada olgan tarbiyasi oilada davom ettirilsa, tarbiyaviy natijalar yanada mustahkam bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va rivoyatlar bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Ertaklar bolalarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagi orqali mehnatsevarlik, sabr-toqat va odoblilik targ'ib qilinadi. "Ur to'qmoq" ertagi adolat va halollik g'oyalarini singdiradi. Topishmoqlar esa bolalarning tafakkuri, nutqi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular milliy turmush tarziga oid tushunchalarni ham o'zlashtiradilar. Maqollar xalqning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasini o'zida aks ettiradi. Masalan, "Mehnatning tagi rohat", "Yaxshilik qil, dengizga ot", "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda" kabi maqollar bolalarda axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, allalar va bolalar qo'shiqlari bolalarda milliy musiqaga qiziqish uyg'otadi, estetik did va hissiy dunyoning boyishiga xizmat qiladi.

Milliy bayramlar va an'analar bolalarni xalq madaniyati bilan tanishtirishning eng ta'sirchan vositalaridan biridir. Bayram tadbirlari orqali bolalar milliy qadriyatlarni nafaqat eshitadilar, balki amaliy faoliyat davomida his qiladilar. Navro'z bayrami bolalarni tabiatga mehr-muhabbat, yangilanish va bunyodkorlik g'oyalari ruhida tarbiyalaydi. Bayram davomida milliy taomlar, xalq o'yinlari, kuy-qo'shiqlar va urf-odatlar bilan tanishish





bolalarda milliy madaniyatga qiziqishni oshiradi. Mustaqillik bayrami esa Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mehmondo'stlik, hashar, sumalak sayli, to'y marosimlari kabi an'analar orqali bolalarda hamjihatlik, mehr-oqibat va jamoaviylik sifatleri rivojlanadi.

Oila bolaning birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Bola ilk milliy qadriyatlar bilan aynan oilada tanishadi. Ota-onalarning o'zaro hurmati, kattalarga ehtirom ko'rsatishi, milliy an'analarga amal qilishi bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oilada xalq ertaklarini aytib berish, milliy bayramlarni birgalikda nishonlash, ajdodlar haqida suhbatlashish va milliy urf-odatlariga amal qilish bolalarda milliy o'zlikni anglash hissini rivojlantiradi. Pedagoglar va ota-onalar hamkorligi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun seminarlar, davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglar va ota-onalar hamkorligi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning eng muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki bola o'z hayotining asosiy qismini oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitida o'tkazadi. Agar bog'chada berilayotgan tarbiya oiladagi tarbiya bilan uyg'unlashsa, bolada milliy qadriyatlarga oid bilim, ko'nikma va munosabatlar yanada mustahkam shakllanadi. Aksincha, ta'lim muassasasi va oila tarbiyasi o'rtasida uzilish yuzaga kelsa, bolada ma'naviy qarashlarning izchil rivojlanishi qiyinlashadi.

Ota-onalar bolalar uchun eng yaqin namuna hisoblanadi. Kattalarning o'zaro hurmat bilan muomala qilishi, milliy urf-odatlariga amal qilishi, ajdodlar merosini qadrlashi va Vatanga muhabbat ruhida yashashi bolaga bevosita tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli ota-onalarning milliy qadriyatlar borasidagi pedagogik bilimlarini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun "Oilada milliy tarbiya", "Milliy qadriyatlar va farzand tarbiyasi", "Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari" kabi mavzularda seminar-treninglar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday tadbirlar orqali ota-onalar bolalarda milliy o'zlikni shakllantirishning samarali usullari bilan tanishadilar hamda tarbiyadagi dolzarb masalalar yuzasidan tajriba almashadilar.

Shuningdek, davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadbirlarga tajribali pedagoglar, psixologlar, mahalla faollari va nuroniylarni jalb etish orqali milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'рни haqida ota-onalarga amaliy tavsiyalar berish mumkin.



Ayniqsa, oilada kitobxonlik muhitini yaratish, xalq ertaklarini o'qib berish, milliy bayramlarni birgalikda nishonlash va ajdodlar hayoti haqida suhbatlar tashkil etish bo'yicha tavsiyalar samarali natija beradi.

Pedagoglar va ota-onalar hamkorligini mustahkamlash maqsadida "Ochiq eshiklar kuni", "Oilaviy qadriyatlar haftaligi", "Milliy liboslar kuni", "Ertaklar festivali", "Navro'z sayli" kabi qo'shma tadbirlarni tashkil etish ham foydalidir.

Bunday tadbirlarda bolalar ota-onalari bilan birgalikda ishtirok etib, milliy urf-odatlar, xalq o'yinlari, milliy taomlar va an'analar bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa ularda milliy madaniyatga hurmat va qiziqishni kuchaytiradi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi ota-onalar bilan hamkorlikning yangi shakllarini ham joriy etish imkonini bermoqda.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn guruhlar va elektron platformalar orqali milliy tarbiya bo'yicha tavsiyalar, videomateriallar, metodik tavsiyalar va ma'rifiy materiallarni ota-onalarga muntazam yetkazib borish mumkin.

Bu esa tarbiyaviy ishlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Demak, pedagoglar va ota-onalarning maqsadli hamkorligi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning muhim omili bo'lib, ularning ma'naviy barkamol, vatanparvar va milliy o'zligini anglagan shaxslar sifatida voyaga yetishlariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish ularning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik va bag'rikenglik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar asosidagi tarbiyani samarali tashkil etishda xalq og'zaki ijodi, milliy bayramlar, urf-odatlar, oilaviy tarbiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish zarur.

Ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Kelajak avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotning ham muhim sharti bo'lib, barkamol va vatanparvar shaxslarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.





2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2020.
3. Hasanboyeva O.U., Tojiboyeva Sh.A., Tadjieva F.A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2021.
4. Nishonova Z.T., Alimuhamedova D.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
6. UNICEF. Early Childhood Development and Learning Report. – New York, 2024.

